

TURKISTONDA JADID MATBUOTI VA UNDA MODERNIZATSIYA BAHSLARI

Ismoiljon Ibrohimjon o'g'li IKROMOV

o'qituvchi

Andijon davlat pedagogika instituti

Andijon, O'zbekiston

ORCID: 0009-0001-3094-1472

e-mail: ikromov.edu1@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkistonda jadid matbuotining paydo bo'lishi va uning modernizatsiya jarayonidagi o'rni tahlil qilingan. Matbaa texnologiyasi bilimni ulamolarning monopoliyasidan chiqarib, keng jamoatchilikka yetkazgan va musulmon jamiyatining mustamlaka sharoitida o'zini qayta ta'riflashiga zamin yaratgan. Matnda jadid matbuoti orqali ta'lim islohoti, ayollar huquqlari, diniy yangilanish va milliy ong shakllanishi kabi masalalar keng muhokama qilingan.

Tayanch so'zlar: Turkiston, jadid matbuoti, modernizatsiya, ta'lim islohoti, ayollar huquqlari, milliy ong, senzura

ДЖАДИДСКАЯ ПЕЧАТЬ В ТУРКЕСТАНЕ И ДИСКУССИИ О МОДЕРНИЗАЦИИ В НЕЙ

Исмоилжон Иброхимжон угли ИКРОМОВ

преподаватель

Андижанского государственного педагогического институт

Андижан, Узбекистан

Аннотация

В статье рассматривается возникновение джадидской печати в Туркестане в конце XIX – начале XX века и её роль в процессе модернизации. Типографская технология способствовала выходу знаний из монополии улемов и их распространению среди широкой общественности, что создало условия для переосмысления мусульманского общества в условиях колониального режима. Через джадидскую печать обсуждались вопросы реформы образования, прав женщин, религиозного обновления и формирования национального самосознания.

Ключевые слова: Туркестан, джадидская печать, модернизация, реформа образования, права женщин, национальное самосознание, цензура.

Turkistonda XIX asr oxiri va XX asr boshlarida yuzaga kelgan jadidchilik harakati faqat ta'limdagi uslubiy o'zgarish emas, balki musulmon jamiyatining zamonaviy dunyodagi o'rni va o'zligini matbuot vositasida qayta shakllantirishga qaratilgan keng qamrovli tashabbusdir. Harakatning asosini bilim, ishlab chiqarish va uni uzatish shaklini tubdan o'zgartirgan matbaa texnologiyasi hamda shu

texnologiya asosida rivojlangan davriy nashrlar tashkil etgan. Bu jarayon bilimning ulamolar qo‘lidagi qo‘lyozma madaniyatidan chiqib, ommalashuviga hamda “*taraqqiy*” (rivojlanish) va “*madaniyat*” (sivilizatsiya) tushunchalari atrofida ijtimoiy o‘zgarishlarning yuzaga kelishiga zamin yaratgan. Jadid matbuoti jamiyatning ortda qolish sababi sifatida ko‘rilgan “*jaholat*”ga qarshi kurashish va islomni zamonaviy davr talablari asosida qayta talqin etishning eng muhim minbariga aylangan.

Zamonaviy akademik davralarda jadidchilik va matbuot masalalari atrofidagi bahslar asosan an’anaviy “*jadid-markazli*” (Jadidocentric) tarixshunoslikka nisbatan tanqidiy yondashuv asosida olib borilmoqda [3; 37–38], 4; 1-5]. Misol uchun, Devin DeViz kabi tadqiqotchilar jadidchilikdan oldingi davrni faqat “*qorong‘i va turg‘un*” davr sifatida baholovchi yondashuvni mintaqaning boy intellektual merosini soddalashtiruvchi ilmiy stereotip deb hisoblaydilar [3]. Yangi yondashuvlar jadidlarni faqat “*modernistlar*” sifatida talqin qilish o‘rniga, ularni Rossiya mustamlakachiligi sharoitidagi “*mustamlaka ziyolilari*” sifatida ko‘rib chiqadi hamda matbaa faqat modernistlar emas, balki “*qadimchilar*” deb atalgan an’anaviy ulamolar tomonidan ham (masalan, “al-Isloh” jurnali orqali) o‘z mavqeini himoya qilish uchun qanday qo‘llanganini tahlil qiladi [4; 22], [7; 406]. Bu esa matbuotning yagona yo‘nalishdagi modernizatsiya vositasi emasligini, balki turli g‘oyalar raqobat qiladigan va islom “*obyektlashtirilgan*” murakkab ijtimoiy maydon (public sphere)ni shakllantirganini ko‘rsatadi [4; 15-16].

Shu nuqtai nazardan, Turkistondagi jadid matbuoti – Qrimda Ismoil G‘aspirali tomonidan asos solingan “Tarjimon” gazetasidan katta ta’sirlangan (*imperiyaning Turkistondagi matbaa va gazetachilik faoliyatiga to‘xtalinadi - muallif*), keyinchalik Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Oyina” jurnali va Ubaydulla Asadullaxo‘jayevning “Sadoyi Turkiston” kabi mahalliy nashrlari orqali rivojlangan intellektual inqilobning texnologik markazi hisoblanadi [1; 156]. Ushbu nashrlar mustamlaka sharoitida yashagan musulmonlarning zamonaviy dunyoda o‘z kimligini saqlab qolish va namoyon etish kurashining asosiy

tayanchiga aylangan hamda bugungi Markaziy Osiyo milliy o'zliklarining shakllanishiga zamin yaratgan, deyishimiz mumkin [9]. Mazkur maqola aynan shu matbuot organlarida olib borilgan modernizatsiya bahslarini — ta'lim, til, ayollar huquqlari va siyosiy muxtoriyat kabi masalalar doirasida, zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida tahlil qilishni maqsad qiladi.

Turkiston hududida matbaa texnologiyasi va unga bog'liq ravishda davriy nashrlarning (matbuot) paydo bo'lishi XIX asrning ikkinchi yarmidagi rus istilosi bilan ham bog'liqdir [10; 158]. Rus istilosidan avval mintaqada bilim ishlab chiqarish va uzatish to'liq qo'lyozma madaniyatiga hamda usta–shogird munosabatiga asoslangan og'zaki an'anaga tayangan edi [6; 212]. Mintaqadagi ilk matbaa 1868-yilda general fon Kaufman tomonidan Toshkentdagi rus harbiy qarorgohida rasmiy e'lonlarni tarqatish maqsadida tashkil etilgan. Ushbu matbaada 1870-yildan boshlab mintaqaning ilk davriy nashri bo'lgan imperiya ma'muriyatining rasmiy organi “Turkiston viloyatining gazetisi” arab yozuvidagi turkiycha qo'shimchalar bilan chop etila boshladi [1; 280].

Mintaqada tijoriy va ommaviy nashriyotning rivojlanishi esa 1883-yilda litografiyaning (toshbosma) kirib kelishi bilan tezlashdi. Toshbosma kitoblarning qo'lyozma estetikasini saqlagan holda minglab nusxalarda chop etilishiga imkon yaratdi va bilimning keng ommaga yetib borishini ta'minlashga katta hissa qo'shdi. 1905-yilgi inqilobgacha mintaqada rus hokimiyatining qat'iy nazorati ostida faqat rasmiy nashrlar mavjud bo'lsa-da, Qrimda Ismoilbey G'aspirali tomonidan chiqarilgan “Tarjimon” (1883) gazetasi pochta orqali Turkistonga yetib kelib, mintaqadagi intellektual uyg'onishning asoslarini yaratishga yordam berdi [1].

Jadid ziyolilari uchun matbaa faqat bosma vositasi emas, balki musulmon jamiyatini “jaholat uyqusidan” uyg'otadigan eng muhim “*intellektual texnologiya*” sifatida ko'rilgan. Tadqiqotlarda jadidchilar matbaadan quyidagi maqsadlarda foydalanganligi alohida ta'kidlanadi:

Bilimning jamoaviylashuvi. Bilimni ulamolarning monopoliyasidagi madrasalardan chiqarib, har bir savodli inson kirish imkoniga ega bo'ladigan jamoat maydonini (public sphere) yaratishga intildilar.

Ma'rifat va ta'lim islohot. “Usuli jadid” maktablari uchun tayyorlangan zamonaviy alifbolar va darsliklar matbaalar orqali keng tarqaldi.

Ijtimoiy tanqid va islohot. Gazeta felyetonlari, teatr asarlari va hajviy yozuvlar orqali jamiyatdagi nuqsonlar, ortiqcha xarajatli urf-odatlar va ulamolarning muhofazakorligi tanqid qilindi.

Milliy kimlik qurilishi. Matbuot orqali “Musulmon” va “Turk” tushunchalari atrofida umumiy “millat” (ulus) ongini shakllantirishga harakat qilindi.

Rossiya imperiyasining jadidchi matbuot faoliyatiga munosabati dastlab mahalliy xalqni “*sivilizatsiyalashuvi*” va rasmiy e'lonlarni tarqatish maqsadini ko'zlagan bo'lsa-da, vaqt o'tishi bilan chuqur shubha va nazorat mexanizmiga aylandi [7; 406]. Chor ma'muriyati matbaani mustamlaka manfaatlari yo'lida ishlatishni maqsad qilgan, biroq musulmon ziyolilarining mustaqil nashrlari qarshisida panislomizm va panturkizm qo'rquvi bilan harakat qilgan [5; 601]. Ayniqsa, Ismoil G'aspiralining “*tilda, fikrda, ishda birlik*” shiori va umumiy adabiy til yaratish sa'y-harakatlari rus amaldorlari tomonidan imperiya birligiga tahdid soluvchi jiddiy siyosiy xavf sifatida qabul qilingan [7].

Bu xavotirlar asosida hukumat mahalliy tillardagi nashrlar ustidan Nikolay Ostroumov kabi mutaxassis amaldorlar orqali qat'iy senzura nazoratini o'rnatdi. 1905-yilgi inqilob taqdim etgan qisqa muddatli erkinlik muhitida faoliyat boshlagan “Taraqqiy”, “Xurshid” va “Shuhrat” kabi mustaqil gazetalar rus amaldorlari tomonidan “*hukumatga qarshi*” va “*fanatik*” sifatida tamg'alanib, turli ma'muriy to'siqlar bilan yopib qo'yildi [2; 18]. Rus ma'murlari mahalliy xalqning rus ta'siridan uzilib, usmonli yoki tatar ta'siriga kirib qolishini oldini olish maqsadida matbuot faqat rus tilini va madaniyatini yoyish uchun ishlatilishi kerakligini himoya qilgan, aks holda mahalliy xalqning “*taassubkorligi*” ortishini ta'kidlagan [7; 506–507]. Natijada matbaa jadidchilar uchun modernizatsiya va ijtimoiy uyg'onishning kaliti bo'lgan bo'lsa, Rus imperiyasi uchun nazorat ostida saqlanishi lozim bo'lgan potensial muxolifat va beqarorlik manbai sifatida ko'rilgan [6; 389–390].

Turkistonda va umuman Rossiya imperiyasi hududlari ichidagi musulmon aholida XIX asr oxiri va XX asr boshida ta'sirli bo'lgan jadid matbuoti faqat xabar yetkazuvchi vosita emas, balki musulmon jamiyatining tafakkurini o'zgartirishni maqsad qilgan inqilobiy maydon vazifasini ham bajargan. Ushbu matbuot orqali ilgari surilgan modernizatsiya g'oyalari ta'limdan tilga, ayollar huquqlaridan siyosiy ongga qadar keng qamrovni o'z ichiga olib, jamiyatda ham chuqur uyg'onishga, ham keskin qarama-qarshiliklarga sabab bo'lgan.

Jadid ziyolilarining asosiy chiqish nuqtasi musulmon jamiyatining "*jaholat uyqusi*" va unga bog'liq ravishda yuzaga kelgan ijtimoiy tanazzul edi [10; 411]. Munavvarqori kabi yetakchi shaxslar matbuot orqali qilgan chaqiriqlarida ta'lim tizimi, axloq va ijtimoiy institutlarning buzuqligini, agar zamonaviy fanlar bilan qurollangan islohot jarayoni tezda boshlanmasa, musulmonlar taraqqiy etgan xalqlar bosimi ostida yo'q bo'lishini ogohlantirganlar [6]. Shu nuqtada "*taraqqiy*" va "*madaniyat*" tushunchalari jadidchilik nutqining markaziga joylashdi. Jadidchilarga ko'ra taraqqiyot umumbashariydir va bu jarayonga qo'shilishning yagona yo'li zamonaviy bilimni (ilm-u fan) egallashdir [8; 360].

Ta'lim sohasida "Usuli jadid" deb atalgan yangi usul va unga mos tayyorlangan zamonaviy darsliklarning matbuot orqali xalqqa tanitilishi intellektual o'zgarishning ilk qadami bo'ldi [10; 413]. Bilim faqat ulamolarning monopoliyasida bo'lgan qo'lyozma madaniyatidan, matbaa orqali har bir savodli inson kirish imkoniga ega bo'ladigan jamoat maydoniga (public sphere) o'tish maqsad qilindi [6]. Ismoil G'aspiralining "tilda, fikrda, ishda birlik" shiori imperiya bo'ylab turk xalqlari orasida umumiy adabiy til va kimlik ongini shakllantirishni maqsad qilgan; bu g'oya Turkistondagi mahalliy gazetalar orqali yanada chuqurlashdi [5; 11]. Yana bir muhim g'oya ayollarning ta'limi va ijtimoiy mavqeidir. Jadidchi nashrlar ayollarning o'qitilmasligini millatning orqada qolishining asosiy sabablaridan biri sifatida ko'rgan [5; 58]. Abdurauf Fitrat va Mahmudxo'ja Behbudiy kabi shaxslar ta'limli ayollar faqat "*ongli onalar*" bo'lishi mumkinligini va shu orqali millatning kelajagi saqlanishini ta'kidlaganlar [9; 204]. Shuningdek, islomning mohiyati zamonaviy fanlar bilan qarama-qarshi emasligi,

asrlar davomida shakllangan xurofotlarni dinning o'zidan tozalash va bevosita Qur'on hamda Sunnaga qaytish zarurligi g'oyasi matbuotda keng o'rin oldi [4; 27].

Tadqiqotlarga ko'ra, jadid g'oyalarining jamiyatdagi aks-sadosi bir ovozli bo'lmagan, aksincha *“jadidchi–qadimchi”* to'qnashuvini yuzaga keltirgan. Gazetalar, teatr asarlari va ommaga ochiq o'quv xonalari Turkiston tarixida ilgari ko'rilmagan ijtimoiy bahs maydonini yaratdi [6]. Gazetalar *“jamiyat kasalliklarini davolovchi shifokorlar”* sifatida ko'riladigan bo'ldi [5; 104].

Biroq an'anaviy ulamo va muhofazakor qatlam (qadimchilar) bu yangiliklarga keskin qarshilik ko'rsatdi. Jadid maktablarini *“nasroniy maktablariga o'xshashligi”*, matbuotni esa *“diniy hokimiyatni larzaga soluvchi buzg'unchilik manbai”* sifatida rad etdilar [10; 411]. Bu qarshilik ba'zan jadidchi nashrlarni yoqib yuborishga chaqiriqlarga, ba'zan esa ziyolilarni *“kofir”* deb e'lon qilishga qadar yetdi [10; 1008]. Shu bilan birga, yangi tadqiqotlar qadimchi ulamolarning ham (masalan, *“al-Isloh”* jurnali) o'z qarashlarini himoya qilish uchun matbaadan foydalanishni boshlaganini va matbuotning bir ovozli modernizatsiya vositasi emas, balki turli fikrlar raqobatlashgan murakkab maydonga aylanganini ham ko'rsatmoqda [4; 15–16], [5; 97].

Rus ma'muriyati dastlab matbaani mahalliy xalqni *“sivilizatsiyalashuvi”* va o'z e'lonlarini tarqatish uchun imkoniyat sifatida ko'rgan bo'lsa-da, jadidchi ziyolilarning mustaqil nashrlari qarshisida chuqur panislomizm va panturkizm qo'rquvini boshdan kechirdi [11; 151]. Nikolay Ostroumov kabi mutaxassis amaldorlar orqali o'rnatilgan qat'iy senzura mexanizmi bilan *“hukumatga qarshi”* deb topilgan ko'plab mahalliy gazetalar yopildi va ziyolilar ustidan doimiy bosim o'rnatildi [5; 46]. Natijada matbaa jadidchilar uchun ijtimoiy uyg'onish va zamonaviy dunyoda mavjud bo'lish kurashining eng kuchli quroli bo'lgan bo'lsa, Rossiya imperiyasi uchun nazorat qilinishi lozim bo'lgan beqarorlik manbai sifatida aks-sado berdi [6; 389–390].

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qiladigan bo'lsak, Turkistonda jadid matbuotining paydo bo'lishi va bu maydonda olib borilgan modernizatsiya munozaralari mintaqaning intellektual tarixida tuzilmaviy inqilobni ifodalaydi.

Matbaa texnologiyasi bilimni ulamolarning monopoliyasidagi qo‘lyozma madaniyatidan chiqarib, uni jamoaviylashtirdi va keng ommaga yetkazdi; bu holat musulmon jamiyatining mustamlaka sharoitida o‘zini qayta ta’riflashiga zamin yaratdi [7; 403]. Jadid ziyolilari uchun matbuot faqat xabar yetkazish vositasi emas, balki jamiyatni jaholat uyqusidan uyg‘otadigan, ijtimoiy kasalliklarni davolaydigan “*shifokor*” va xalqni tarbiyalaydigan “*muallim*” vazifasini bajargan [1; 733].

Matbuot orqali olib borilgan modernizatsiya munozaralarining markazida joylashgan “taraqqiy” va “madaniyat” tushunchalari musulmon jamiyati uchun hayotiy bir mavjudlik maqsadi sifatida taqdim etilgan. “Usuli jadid” maktablari bilan boshlangan ta’lim islohoti matbuot taqdim etgan jamoat maydoni orqali diniy islohot, ayollar huquqlari va milliy kimlik qurilishi kabi kengroq siyosiy va ijtimoiy munozaralarga aylangan. Bugungi yangi akademik yondashuvlar jadid matbuotini faqat modernistlarning yutug‘i sifatida emas, balki an’anaviy ulamolarning ham matbaani o‘z hokimiyatini saqlash uchun ishlatgan, turli fikrlar raqobatlashgan murakkab maydon, o‘ziga xos platforma sifatida baholamoqda. Rus imperiyasining panislomizm qo‘rquvi bilan amalga oshirgan qat’iy senzura siyosatiga qaramay, jadid nashrlari Qrimdan Turkistongacha uzilgan umumiy bir “millat” (ulus) ongining asoslarini yaratishga muvaffaq bo‘ldi. Natijada matbaa Turkistonda modernizatsiya g‘oyalarining faqat tarqalishini ta’minlab qolmadi, balki bilimning mohiyatini, hokimiyatning manbaini va ijtimoiy kimlikning chegaralarini tubdan o‘zgartirib, zamonaviy Markaziy Osiyoning tafakkur dunyosini qurdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абдирашидов З. Исмоил Гаспиринский ва Туркистонда жадидчилик. – Тошкент: Академнашр, 2008.
2. Alimova D. A. Jadidchilik fenomeni. – Toshkent: Akademnashr, 2022.
3. DeWeese, D. (2016). It was a dark and stagnant night ('til the Jadids brought the light): Clichés, biases, and false dichotomies in the intellectual history of

Central Asia. *Journal of the Economic and Social History of the Orient*, 59(1-2), 37-92.

4. Eden, J., Sartori, P., & DeWeese, D. (2016). Moving beyond modernism: Rethinking cultural change in Muslim Eurasia (19th-20th centuries). *Journal of the Economic and Social History of the Orient*, 59(1-2), 1-36.

5. Halimova S. A. *Ubaydulla Asadullaxo‘jayev va “Sadoi Turkiston”*. – Toshkent: Universitet, 2021.

6. Khalid, A. (1998). *The politics of Muslim cultural reform: Jadidism in Central Asia*. Berkeley: University of California Press.

7. Khalid, A. (2009). Culture and power in colonial Turkestan. *Cahiers d’Asie centrale*, 17–18, 403–436.

8. Khalid, A. (2010). *Islom posle kommunizma: Religiya i politika v Tsentral’noy Azii* (pervod A. B. Bogdanova). Moskva: Novoe literaturnoe obozrenie.

9. Khalid, A. (2015). *Making Uzbekistan: Nation, empire, and revolution in the early USSR*. Ithaca: Cornell University Press.

10. Khalid, A. (2021). *Central Asia: A new history from the imperial conquests to the present*. Princeton: Princeton University Press.

11. Tuna, M. Ö. (2004). *Gaspralı İlminskiy’e karşı: Rusya İmparatorluğu’nun Müslümanları için iki kimlik projesi. İsmail Bey Gaspralı için* (pp. 141–171). Ankara.